YOSHLARNING AXLOQIY SHAKLLANISHIDA DINIY TARBIYANING O‘RNI

Abdullayev Ibadulla Abdullayevich
Ma’mun universiteti dotsenti v.b.,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jessi Smit(Benediktin kolleji dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD))ning yoshlarni axloqiy shakllanishida dinning ahamiyatiga oid maqolasidagi qarashlariga munosabat O‘zbeksiton jamiyati jihatidan kelib chiqib bayon qilinadi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar axloqni odamlarning nima to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi haqidagi qarashlariga ta’sir etuvchi ko‘p o‘lchovli, intuitiv xususiyatlar majmui sifatida tushuntiradi. Ko‘plab adabiyotlar diniy omillarning axloqiy sifatlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Biroq diniy tarbiya va voyaga yetgandagi axloqiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik kam tadqiq etilgan.

Kalit sozlar; axloq, din, yoshlar, jamiyat.

Аннотация. В данной статье излагается позиция, основанная на реалиях узбекского общества, по отношению к взглядам Джесси Смита (доцента Бенедиктинского колледжа, доктора философских наук (PhD)) на значение религии в нравственном формировании молодёжи. Последние научные исследования трактуют морал как совокупност многомерных, интуитивных характеристик, влияющих на представления людей о правилном и неправилном. Многочисленная литература указывает на тесную связ религиозных факторов с нравственными качествами. Однако взаимосвяз между религиозным воспитанием и нравственными результатами в зрелом возрасте остаётся малоизученной.

Ключевые слова: морал, религия, молодеж, общество.

Abstract. This article outlines a position, based on the realities of Uzbek society, regarding the views of Jesse Smith (Associate Professor, Benedictine College, PhD) on the role of religion in the moral development of young people. Recent scientific research defines morality as a set of multidimensional, intuitive characteristics that influence people's perceptions of right and wrong. A significant body of literature points to a close link between religious factors and moral qualities. However, the relationship between religious upbringing and moral outcomes in adulthood remains underexplored.

Keywords: morality, religion, youth, society.

DOI: 10.5281/zenodo.24240554

Kirish. Mazkur tadqiqotda o‘smirlik davridagi diniy ijtimoiylashuvning turli shakllari yoshlarning axloq haqidagi ikkita ishonchli ijtimoiy-ilmiy konsepsiya: Haydtning axloqiy asoslari va Shvarsning qadriyatlar tipologiyasi bilan qay darajada bog‘liqligini o‘rganish uchun “Yoshlar va din” milliy tadqiqotining ochiq ma’lumotlaridan foydalanilgan. Regressiv tahlil hamda Lindeman, Merenda va Goldning dekompozitsiya usullaridan foydalanib, diniy tarbiyaning turli jihatlari axloqiy asoslar va qadriyatlarning shakllanishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatib beriladi.

Muhokama. Yoshlarning axloqiy xususiyatlarini kelajakda namayon bo‘lishida diniy asoslar jamiyatning demografik tuzilishi hamda ota-onalarning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga qaraganda muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy tarbiya jamiyat darajasidagi axloqiy tuzilmaning holati va rivojlanish yo‘nalishida markaziy o‘rin egallaydi[1]. Ijtimoiy-ilmiy tadqiqotlar va ommabop qarashlar din va axloq bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligini tasdiqlamoqda. Jessi Smit din muayyan axloqiy qarashlar va his-tuyg‘ularni rivojlantirishga qaratilgan ta’limotlar va amaliyotlarni o‘z ichiga oladi deb takidlab, dinning asl mohiyatidan uzoqlashishini ya’ni avvalo axloqiy qarashlarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi degan zaif tushunchani ko‘rish mumkin. Bizning qarashimizcha din avvalo insonning ilohiy qudratning borligiga iymon keltirishi hisoblanib, shu ma’noda har bir din o‘z ilohiy ta’limotiy tizimi hamda muayyan tizimlashtirilgan amallar kompleksini rivojlantiradi. Aynan ushbu jarayonda har bir insonda diniy-e’tiqodiy qarashlari zamirida o‘z faoliyati va jamiyatdagi munosabatlarga nisbatan shaxsiy-axloqiy fazilatlarini qaror topdira boradi. So‘nggi yillarda ijtimoiy psixologiya olimlari, ayniqsa, Xaydtning axloqiy asoslar nazariyasi va Shvartsning qadriyatlar tipologiyasidan foydalangan holda, individual axloqni konseptuallashtirish va o‘lchashning o‘ziga xos usullarini taklif qilinmoqda. Jessi Smit axloqiy asoslar muayyan chegaralarga asoslangan, taqiqlovchi axloqni aks ettiradi, qadriyatlar esa maqsadlarga asoslangan, taqiqlovchi axloqni ko‘rsatadi degan firkni ilgari suradi. Ammo uning bu fikri bir yoqlama bo‘lib, axloqqa nisbatan taqiqlovchi, cheklovchi jihatlarni urg‘ulaydi. Bizningcha axloq asoslari shaxsning jamiyatda turli munosabatlarga kirishishni eng yuksak va afzal tarzini rag‘batlantirib, aslan inson va jamiyat xilqatiga xos bo‘lmagan munosabat va amallarni taqiqlaydi yoki cheklaydi. Demak, axloq asoslari avvalo insonga erkinlik va rivojlanishni muayyan shakl va uslublarini taklif etib, o‘sha takliflarni yanada aniqlashtirish zaruratidan kelib chiqib taqiq yoki chelovlarni bayon qilishi tabiiydir. Ushbu xususiyatlar shaxsning turli qarashlari va xulosalari bilan bog‘liq bo‘lib, sinfiy tabaqalanish va siyosiy qutblanish kabi ijtimoiy jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Diniy omillar ham axloqiy asoslarni, ham qadriyatlarni oldindan belgilab beruvchi muhim

ko‘rsatkichdir. Jessi Smit o‘z fikrlarini asoslash uchun, Schwadel va Hardyning 2022-yilgi ilmiy tadqiqot natijalarini keltirib, dindorlik an’ana va itoatkorlikka yo‘naltirilgan hamda guruh maqomini shaxsdan ustun qo‘yadigan axloqni rag‘batlantiradi deb takidlaydi[2]. Zamonaviy tadqiqotlarda bolalikdagi diniy ijtimoiylashuvining axloqiy asoslar va qadriyatlar rivojlanishi bilan bog‘liqligi masalasi deyarli e’tibordan chetda qolgan. Tashqi diniy tajribalarning turli shakllari barqaror va ta’sirchan ichki axloqiy tuyg‘ularning shakllanishiga qanday hissa qo‘shishini chuqurroq o‘rganishga ehtiyoj bor. Lizardo o‘zining 2017-yildagi ilmiy tadqiqotlarida madaniyat sotsiologiyasidagi so‘nggi nazariy qarashlar individning madaniyatning muayyan shakliga kirishishining, ya’ni uzoq muddatli kognitiv o‘zgarishlar orqali ichki moyilliklarni shakllantiradigan bolalik davri tajribalari muhimligini ta’kidlaydi[3]. Smith o‘zining 2021-yilgi diniy vorislikni o‘rganuvchi tadqiqotlarda ham keyingi e’tiqod va amaliyotlar uchun bolalikdagi ijtimoiylashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi. Yuqoridagi ilmiy natijalarga asoslanib, din va axloqni tadqiq etishda qo‘llash asosiy e’tiborni birinchidan, diniy sotsializatsiyaning turli usullariga, ikkinchidan, ularning aynan hayotning ilk bosqichlarida yuz berishiga qaratishni talab etadi. Mazkur maqolada “Yoshlar va din milliy tadqiqoti”ning (NSYR) ochiq ma’lumotlaridan foydalanib, dinning axloqiy shakllanishdagi rolini qilindi. Xususan, jamoat, oila va maktab muhitidagi diniy ijtimoiylashuv hamda o‘smirlik davridagi oilaviy diniy an’analar yosh ulg‘ayganda chegaraga asoslangan va maqsadga yo‘naltirilgan axloq bilan qay darajada bog‘liqligini urg‘ulanadi. Veberning ta’kidlashicha, turli diniy tizimlar o‘ziga xos axloqiy maqsadlarni ta’minlaydi, bu esa o‘z navbatida xulq-atvor va ijtimoiy tartiblarni shakllantiradi [4]. U AQSHda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, ijtimoiy mojarolar va diniy qayta qurish bo‘yicha o‘tkazilgan diniy tadqiqotlar diniy an’analarga ko‘ra sezilarli axloqiy farqlarni tasdiqlaganligini, bunda konservativ protestantlar (va ba’zi katoliklar) kommunitarizm va qat’iy diniy hokimiyatga rioya qilishga yo‘naltirilgan axloqiy qarashni qo‘llab-quvvatlaydilar, asosiy protestantlar (va ba’zi katoliklar) esa umumiy rahm-shafqat va ijtimoiy adolatga ko‘proq e’tibor qaratishlarini urg‘ulaydi. O‘z tadqiqotida Jessi Smit o‘smirlik davridagi diniy ijtimoiylashuvning o‘ziga xos usullari keyingi axloqiy asoslar va qadriyatlar bilan qanday bog‘liqligini o‘rganadi. Xususan, u jamoat, uy va maktab sharoitlaridagi diniy amaliyotning, shuningdek, oldingi diniy an’ananing keyingi axloqiy xususiyatlarga ta’sirini yoki axloqiylikning diniy ta’sirning ko‘lami va mazmuni orqali qanday shakllanishini tadqiq qiladi. Diniy tajribalar ramziy tizimlar, muntazamlik, intensivlik, usul va umumiylik kabi ko‘plab xususiyatlarga ko‘ra farqlanadi va bular sodir bo‘ladigan axloqiy shakllanishning kuchi va turiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Siyosiy xususiyatlar ham diniy, ham axloqiy natijalarga ta’sir

ko‘rsatishi mumkin, bu esa chalkashlikning potensial manbai bo‘lib xizmat qiladi[5]. Bu ehtimolni bartaraf etish uchun u birinchi to‘lqinda ota-onalarning siyosiy mafkurasini e’tibor qaratishni. Xususan, ota-onalardan o‘zlarini «Juda liberal»dan «Juda konservativ»gacha bo‘lgan 5 ballik shkalada joylashtirib so‘rovnamalar o‘tkazishini, shunga asoslanib, ota-onalarning siyosiy mafkurasini to‘rt toifaga ajratadi. Bular- liberal, mo‘tadil, konservativ va ishonchsiz. E’tiborli jihati shundaki, oilaviy diniy munozaralar ushbu natijalarning har biri uchun diniy davomatga qaraganda kuchliroq ta’sirli bo‘lib, bu diniy ijtimoiylashuvning asosiy joyi sifatida jamoatdan ko‘ra oilaning ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi Jessi Smit ota-onalarning umumiy e’tiqodi darajasiga asoslangan axloqiy asoslarda bir qancha farqlarni ko‘rishini. Bir xil e’tiqodli oilalarga qaraganda, aralash e’tiqodli oilalardagi bolalar obro‘ga kamroq e’tibor berishadi, ota-onasidan biri dindor bo‘lgan oilalarda esa g‘amxo‘rlik va adolatga kamroq e’tibor berishadi. Ikkita dindor bo‘lmagan ota-onasi bor bolalar adolatlilikdan tashqari har bir asos bo‘yicha pastroq darajalarni ko‘rsatadilar va yolg‘iz ota-onalarning farzandlari sadoqat haqida kamroq qayg‘uradilar. U diniy ta’sir va axloqiy xususiyatlar o‘rtasidagi aloqalarda muhim o‘xshashliklar hamda farqlarni ko‘rasatadi. Ibodatlarda qatnashish va oiladagi diniy munozaralar taqiqlarga taalluqli hamda guruh manfaatlariga qaratilgan axloqiy moyilliklarni belgilashda o‘xshash tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Diniy jamoada ishtirok etish, gap qaysi guruh yoki me’yorlar haqida borayotganidan qat’i nazar, guruhga mansublik hissini va uning me’yorlariga hurmatni shakllantirishdek umumiy vazifani bajaradi.

Xulosa. Diniy tarbiya va keyingi axloqiy xususiyatlar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik bor. Xususan, jamoat va oila muhitidagi erta diniy amaliyot guruhning farovonligiga yo‘naltirilgan to‘g‘ri va noto‘g‘ri o‘rtasidagi chegaralarni belgilash bilan bog‘liq axloqiy xususiyatlarni targ‘ib qilishda asosiy rol o‘ynaydi, oilaviy diniy an’ana esa odamlarning universal va individualistik maqsadlarga erishish darajasini shakllantirishda muhimroq omil hisoblanadi. Bundan tashqari, dekompozitsiya natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rta hisobda diniy omillar yoshlarning axloqiy xususiyatlariga ta’sir qilishda ota-onalarning siyosiy mafkurasi yoki ijtimoiy-demografik omillarga qaraganda muhimroqdir. Natijalar diniy va axloqiy ijtimoiylashuv haqidagi tushunchamizga erta hayot va multimodal diniy tajribani kiritishning muhimligini ta’kidlaydi, shu bilan din va axloq o‘rtasidagi munosabatlarni assotsiatsiyalar sifatida emas, balki dinamik jarayonlar sifatida ko‘rib chiqadi. Bu jarayonlar diniy tarbiyani aholi darajasidagi axloqiy tafovutlar bilan, shuningdek, ijtimoiy tabaqalanish yoki madaniy va siyosiy bo‘linishlar kabi kattaroq sotsiologik hodisalar bilan bog‘lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jessi Smit. Linking Religious Upbringing to Young Adult Moral Formation. Journal for the Scientific Study of Religion 62 (3), 481-499b, 2023.

2. P Schwadel, SA Hardy. What aspects of religiosity are associated with values? Journal for the Scientific Study of Religion 61(2):374-88. 2022.

3. Lizado,Omar. Improving Cultural Analysis: Considering Personal Culture in its Declarative and Nondeclarative Modes. American Sociological Review 82(1):88-115. 2017.

4. Weber, Max and Stephen Kalberg. The Protestant ethec and the spirit of capitalism. Routledge.5-15p. 2001.

5. Michele F. Margolis. How Partisanship and the Political Environment Shape Religious Identity. University of Chicago Press.2018.